



HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE’RIYATIDA MAISHIY LEKSEMALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI:

uy-ro‘zg‘or buyum va jihozlariga oid leksemalar

Tilovova Hilola Komil qizi

JDPU o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Til, uning ifodalanish belgilari, birliklari va badiiy matnda til vositalarining tutgan o‘rnini belgilash bilan bog‘liq masalalar – amaliy tilshunoslikning asosiy obyekt va masalalaridan biri hisoblanadi. Maqolada shoira Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida o‘rin olgan maishiy leksik birliklar, xususan, uy-ro‘zg‘or buyum va jihozlarini atovchi leksemalar aniqlanib ularning etimologiyasi, izohi, ma’no munosabati tahlil qilinadi. Ijmoiy-maishiy leksika haqida umumiy ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: maishiy leksika, leksemalarning leksik xususiyati, semantik xususiyat, so‘z etimologiyasi, giper-giponimiya, „O‘zbek tilining etimologik lug‘ati“, „O‘zbek tilining izohli lug‘atsinonimlik hodisasi, „Buyuk qushlar“ o‘zbek terminologiyasi.

Filologiya shuni ko‘rsatadiki, muayyan bir tilning ijtimoiy xarakterini o‘rganishni individual shaxs nutqi tadqiqidan boshlash to‘g‘ri yo‘l, bu murakkab, ayni vaqtda keng qamrovli tahlil jarayoni bo‘lib, uni o‘rganish, tilshunoslikning shaxs nutqi, ijtimoiylik bilan bog‘liq soha sifatida alohida tatbiq etish o‘zbek tilshunosligining bugungi kundagi dolzarb masalalaridan biridir.

Shoira Halima Xudoyberdiyeva so‘zning mantiqiy kuchini ko‘rsata bilgan, lug‘aviy ma’nolarini turli jilvalarda aks ettira olgan, mag‘zi to‘liq she’rlari bilan o‘zbek kitobxonlarining qalbiga kirib borgan,, o‘zigagina xos ijodkor. U hozirgi o‘zbek tilining



leksik-semantik boyligiga tayangan holda yangicha keng tashbehlar yaratishga erishgan. O'zbek filologiyasi sohasida bu ijodkorning asarlari lingvistik jihatdan o'rganishga ehtiyoj mavjud.

Tilshunoslikda “maishiy leksika” tushunchasi yagona ma'noli ta'rifga ega emas. Lingvistik terminlarga oid lug'atda maishiy leksikaga shunday ta'rif berilgan: “Kundalik hayotda ishlatiladigan so'zlarni o'z ichiga olgan, narsa va hodisalarni, ya'ni umumiy turmush tarzi, atrof-muhit, urf-odatlar va boshqalarni nomlaydigan lug'at. Uy, xona, stol; pichoq, vilkalar, qoshiq; daraxtlar, bog', oshxona; tushlik, sho'rva, kartoshka, go'sht; it, mushuk, sigir, ot; oila, maktab, to'y, dafn marosimi va sh.k. Asosan bu umum qo'llanadigan so'zlar, qisman maishiy-so'zlashuv leksikasi“ [X.11 Розенталь Д.Э., Теленкова М.А.Словарь-справочник лингвистических терминов. – М: Просвещение, 1985. –С.30.]

Dastlab ijodkorning „Buyuk qushlar“ („O'zbekiston“ NMIU, 2012) to'plamidan o'rin olgan oshxona buyum va jihozlariga oid leksemalar bilan tanishamiz.

Vodarig', men kimga ochgandim quchoq,

Uchar chog' osmonni o'ylamas uchoq.

Oxiri, oxiri so'yding bepichoq

Xanjarmi eding? [564]

Tahlilni boshlarkanmiz, she'rlardagi maishiy so'z uyalari, hayotda faol qo'llanadigan leksik birliklarga ahamiyat beramiz. Bunda hozirgi o'zbek adabiy tiligagina xos so'zlarni emas, eski adabiy til unsurlarini ham hisobga olish mumkin. Demak, misralarda uchragan pichoq va xanjar predmetlari ijtimoiy-maishiy hayotga xos bo'lgani uchun bu leksemalarning etimologiyasi va to'plamda qo'llanish ko'lami, sinonimiyasiga e'tibor beramiz. Pichoq -- fors-tojik tilidan o'zlashgan leksema bo'lib, Sh. Rahmatullayevning etimologik lug'atida u bilan bog'liq ma'lumotni uchratish mumkin. Pichoq kesishga mo'ljallangan maishiy asbob bo'lib, u qadimgi turkiy manbalarda bichak, bichak shakllarida keltirilgan. So'zning tarkibi ikki xil ma'noda talqin qilinadi. Qadimgi



turkiy tilda o'tkir, kesuvchi asbob ma'nosini bildiruvchi bi va kichraytirish ma'nosini anglatuvchi -chak qo'shimchasi bilan yasalgan. Ikkinchi tarkib ham so'z shakliga yaqinroq: - kes ma'nosini beradigan bich so'ziga -q qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan, deyiladi. Keyinchalik b undosh p undoshiga almashinuvi, hozirgi o'zbek tilidagi pichoq so'zini hosil qilgan. So'z oxiridagi -q tovushi ta'sirida a unlisi â ga o'zargangan, ы unlisining qattiqligi yo'qolgan. bichaq, bichoq, pichoq. (260) Pichoq bu o'zbekcha, ot turkumiga oid so'z, -be esa „yo'q“ ma'nosini anglatuvchi tojikcha affiks sanaladi.

Xanjar – [a. – xanjar] Ikki tomoni tig'li qurol, dudama. (O'TIL – O'zbek tilining izohli lug'ati)

Uchoq so'ziga ham ta'rif berib o'tish mumkin: Samolyot, vertolyot ma'nosida. (esk. Samolyot, vertolyot kabi uchish apparati. O'zbek tilining izohli lug'ati) Uch asosi va -oq affiksidan tarkib topgan.

Menga bir kosa bering, ko'klam suvin to'ldirib...

Kosa yuqin yalashib, och odamlar ichardi...

Ayni qirg'in kunlari

„Non to'la dasturxonga yetib olsak mayli“ deb

Niyat qilganimiz rost.

Banda ijtimoiy-maishiy terminlar bir nechta. Kosa maishiy hayotda faol qo'llanadigan buyum bo'lib, hozirgi o'zbek adabiy tilida bu so'z o'z ifodasida keng qo'llaniladi. Taom suziladigan, piyoladan katta hajmdagi chuqur aylana idish. Shavkat Rahmatullayevning „O'zbek tilining etimologik lug'ati“ 3- qismida shunday deyilgan: Bu ot PRS - Миллер В.Б. Персидско-Русский словарь da "[kä's] mn. [kä'sat] va [kous] shakllarida keltirilib, чаша, кубок shakliga keltirilib [391], большая чашка, чаша deb izohlangan. TJS (таджиково-русский словарь Госиздант ин. и нац. слоаюварей М.:1954) da kosa shakliga kelib, большая чашка deb izohlangani aytiladi. O'TIL da bosh



ma'nosi piyoladan kattaroq, asosan suyuqlik solib ichiladigan idish deb ta'rif beriladi.
[399]

Dasturxon leksemasi Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida keng uchraydi. Sababi, shoira o'z ijodiga asosan, oddiy kishilik kundalik turmush tarzida keng iste'molda bo'lgan so'zlarni olib kiradi.

Zahar! Qulab, eri berdi jon,

Na qotil bor, na bir tomchi qon...

Bo'sh qadah ham ketmadi sinib,

Dasturxonga qaytdi yuvinib...[Saylanma. 234]

Hozirda dasturxon shaklida tanilgan bu so'zining kelib chiqishi ba'zan “dastur”, “urf-odat” ma'nolariga bog'liq holda talqin qilinadi. Aslida, dasturxon tojik tilida dasturxon shakliga ega. Alloma shoir E.Vohidov dasturxon so'zini dastor va xvana so'zlaridan kelib chiqqan deb izohlagan. “Xon esa bugungi tilimizda – stol. Otabobolarimiz chordana qurib o'tirganlari uchun bizning stolimiz pastroq qilib yasalgan. Uni xontaxta ham deyiladi”. 15. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da (O'TIL) mazkur istilohga shunday izoh berilgan: Dasturxon [f. dasturxon – ovqat qo'yiladigan mato; unga qo'yilgan taomlar] 1 O'rtaga yozib, ustiga ovqat qo'yiladigan maxsus mato, ro'zg'or buyumi. [O'TIL, I, 574]

Kosa leksemasi she'r ichida qo'llanishi bilan birga alohida she'rga nom ham bo'lib kelgan. „Chinni kosa“ she'ri bunga misol.

O'nta farzand o'n baxtga ega

Har birin o'z ishq-u g'azali.

O'nta farzand talashib yegan

Bitta chinni kosa asalim.



Chinni soʻziga ham eʼtibor qaratsak, Chinni - [f. – Xitoyga mansub] 1 Turli idish-oyoq, yodgorliklar, izolyasion ashyolar tayyorlash uchun ishlatiladigan oq loy. Xitoy chinnisi. Toshkent chinnisi. Sopol chinni boʻlmas, begona – ini. (Oʻzbek tilining izohli lugʻati)

Chinni Xitoyning sharq mamlakatlaridagi nomi Chin nomi boʻlib, tojik tiliga -y qoʻshimchasini qoʻshib hosil qilingan. Oʻzbek tilida -n tovushi qatlangan, -i tovushining choʻziqlik belgisi esa yoʻqolgan. „Xitoy harfori“ „asl idish-oyoq“ maʼnosini anglatadi.

Poetikada chinni bir noziklik, obyektning toza, aslligi, yarq etgan turuvchi buyumni anglatuvchi leksemaki, u kabi soʻzlarni tashbehlashtirib, oʻrinlatib qoʻllashda oʻziga yarasha mahorat, bilim talab qilinadi.

Quyidagi misrada yana bir namunani koʻrish mumkin:

...Misli chinni, tegib ming xarsang

Vujudi chil-chil boʻlgan el bu.

Otuv, qamoq, sirtmoqlar olgan --

Jonlar mustaqil boʻlgan el bu.

Qadah. Bu soʻz arabcha qadah(un) shakliga ega boʻlib, (ARS - арабских-русский словарь. Изд.Русский язык" М.:1796. 623) oʻzbek tiliga xoyi xutiy (h) undoshiga almashtirilib qabul qilinganligi aytiladi. [520] Asli qadaha feʼlining „uydi“ maʼnosi asosida hosil boʻlgan. Oʻzbek tiliga may ichiladigan idish maʼnosida qabul qilingan. Qadah dastlab yogʻochdan oʻyib yasalgan.

„.Qozonda sut yotibdi achib,

Sirkalabdi singlisin sochi.

Ketmoqlikning yoʻqmi iloji

Onasi ketmas bir joylarga?! [232]



Qozon. Turli taomlar pishirish, tayyorlash yoki suv isitish uchun cho'yandan quyib tayyorlangan ro'zg'or buyumi. Ovqat pishirish va yeyish uchun ishlatiladigan idish.

...Men qozonga urinay,

Piyolaga solay bol. [568]

Haq-u nohaq sendan birday ketarlar rozi,

Balki shundan sendagi bu umrboqiylik.

Buncha mehr ko'tarolmas mening tarozim,

Kechir, qo'limdan kelmaydi bu xil saxiylik. [61]

Tarozi metafora ma'no ko'chishini yuzaga keltirgan. „Bobo quyosh“ she'rida muallifning o'z ko'ngli, balki vujudi ma'nosida kelayotgan tarozi -- o'lchov asbobi. Maishiy turmushda faol qo'llanuvchi unsurlardan biri. „O'zbek tilining etimologik lug'ati“ 3- qismida shunday deyilgan: Bu ot tarozu tovush shakliga ega bo'lib, uning og'irlik o'lchash asbobini anglatishi aytiladi. Forschadan kirib kelgan.

O yo'q, bu tuyg'u haqida hojatmi hech so'z,

Unga yo yetar, yo yo'lda shart uzilgay ip. [95]

Ip leksemasi tikish uchun ishlatiladigan buyumni bildirishi ma'lum. "Tolalardan eshib tayyorlanadigan ingichka tikish buyumi", deyiladi „So'zlarning etimologik lug'ati“ da. Qadimgi turkiy tilda ham shu ma'noni anglatgan bu ot yip den atalgan va eski o'zbek tilida so'z boshidagi -y undoshi talaffuz qilinmay qolgan.

Volidam qo'lidan ipni, ignani

Siz qachon olursiz, chuchuk tillarim.[191]

„Ip“ning etimologiyasi ma'lum bo'ldi. Igna leksemasiga „O'zbek tilining izohli lug'ati“da: Bir tomoni nayzasimon, ikkinchi tomoni teshik bo'lib, teshigidan ip o'tkazib, narsa tikishga mo'ljallangan ingichka metall asbob ta'rifi beriladi. Etimologiyasi quyidagicha: Bu ot asli qadimiy turkiy tildagi „yopishtirib tikilgan“ ma'nosidagi yigi sifati



va -nâ qo‘shimchasini bilan yasalgan. Keyinchalik o‘zbek tilida ikkinchi bo‘g‘indagi -i unli talaffuz qilinmay qolgan. So‘zning nina va iyna tarzida qo‘llanadigan shakllari ham bor. Tikish uchun xizmat qiladigan boshi nayzali, oxiri ko‘zli metall buyum.

O‘zbek terminologiyasi tilning leksik qatlami singari ochiq sistema hisoblanib, kuzatilgan paradigmalar qatori, sinonimik va antonimik munosabatlar ham voqelanadi. Sinonimlar boshqa tillardagi kabi o‘zbek terminologiyasi sistemasida ham faol qo‘llanuvchi leksik birliklar sanaladi. O‘zbek terminologiyasining barcha shakllanish va rivojlanish bosqichlarida mavjud bo‘lgan termin - sinonimlarning salmoqli ulushini mutlaq sinonimlar tashkil qiladi

Halima Xudoyberdiyeva „Kumushning o‘limi“ she'rida:

...Axir sochidan xushbo‘y rayhon hidi ufurib,

Yostig‘iga yolg‘iz bosh qo‘ymoqqa mahkum edi,

Otabekday begidan kun ora mahrum edi. [187] -- misralarini keltiradi. Ikkinchi qatordagi „yostiqlik“ leksemasi bosh ostiga, yonboshga qo‘yib yotish uchun xizmat qiladigan yumshoq buyum. Ushbu ot qadimgi turkiy tilda „uzala tushib ma’nosini anglatuvchi -yat fe’lining „istash“, „moyillik“ ma’nosini beradigan -si qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qiladigan -q qo‘shimchasi bilan yasalgan. Keyinchalik -ts undoshlarining o‘rni almashgan. A unlisi â ga aylangan: yatsiq-yatsuq-yastiq. „Qizini uzatayotgan ona o‘ylari“ she'rida yostiqlik leksemasini ko‘rish mumkin.

...Tuyg‘ularing g‘amdan yonmaganmidi?

Tushuntira olmay menga goh siring,

Yostiqlik ko‘z yoshing tommaganmidi?(190)

Yoki yana bir she'rida aytiladi: „Toshday yostiqlikning yarmi meniki

Yarmida yolg‘izlik bosh qo‘yib yotar. [193]

Tunda toshdan qattiq,



Boshi yostig'iga

Bolishga botib

Onang ketmoqda. [485]

Ushbu „Onang ketmoqda“ she'ridan olingan misralarda shoiraning sinonimlardan foydalanish mahorati ko'rinadiki, bu kabi sinonimlik qatoridan o'rinli foydalanish she'r uchun juda muhim. She'rda rang-baranglikni yuzaga keltiruvchi ma'nodosh leksemalarni ana shunday o'z o'rnida, ortiqcha g'alizliksiz, bachkanaliksiz qo'llash muallifdan nozik did va mahoratni talab qiladi. Sinonimlarning tildagi vazifasi, o'rniga ko'ra xususiyatlarini ham keltirib o'tish joizki, tilshunoslikda sinonimlik hodisasi keng qamrovliligi va matnda ahamiyatliligi nuqtayi nazaridan e'tiborga molikdir. O'zbek tilshunosligining sinonimik hodisasi ta'rif va tavsiflari atoqli tilshunos olim A. Hojiyev nomi bilan bog'liq. „Sinonimlar ma'nosining bir xilligi ularning farqli xususiyatga ega bo'lishini inkor etmaydi. Aksincha, tilda bir ma'noni ifodalash uchun bir nechta so'zning mavjudligi sinonimlarning bir-biriga har jihatdan to'la mos kelmasligini, ularning har biri o'ziga xos belgiga ega bo'lishini ko'rsatadi. Sinonimik qatorni tashkil etgan so'zlar qaysidir jihati bilan bir-biridan farqlangani uchun tilda alohida leksik birlik sifatida yashash imkoniyatiga ega bo'ladi“. [Azim Hojiyev. O'ZBEK TILI sinonimlarining izohli lug'ati. O'qituvchi. T.:1974. B 3.]

Tilda sinonimlarning borligining o'ziyoq o'zaro sinonim bo'lgan har bir so'zning o'ziga xos qandaydir xususiyatga egaligini ko'rsatadi. Haqiqatda ham shunday. Ma'nosi va boshqa xususiyatlari bilan bir-biriga juda teng keladigan so'zlar asosan ilmiy terminlarda uchrab turadi: revolyutsiya, inqilob; agitatsiya, tashviqot; tema, mavzu kabi. Lekin bunday sinonimlar ham qandaydir belgisi, masalan, qo'llanish darajasi, eskirganlik yoki eskirmaganligi jihatidan ma'lum darajada farqlanib turadi. [Nizomiddin Mahmudov. O'zbek sinonimlarning katta izohli lug'ati. 1-jild. G'. G'ulom nomidagi NMIU. 2022. B 3]

Shunday so'zlar bo'ladiki, ularni sinonimmi yoki ma'no darajalariga qarab farqlab bo'ladigan so'zlarmi, degan so'roqlar bilan tutamiz. Misol uchun, vazifasi va ma'nosi bir-



biriga yaqin, lekin shakli boshqacharoq bo'lgan so'zlar. Non leksemasi xamirdan qilingan, aylana shaklli, o'rtacha kattalikdagi mahsulot bo'lsa, unga ijobiy bo'yoqdorlikdagi kulcha so'zini yonma-yon olish mumkin.

Xo'sh, bolish va yostiqlik leksemalari izohi va etimologiyasiga to'xtalsak. Bolish so'zi Shavkat Rahmatullayevning „O'zbek tilining etimologik lug'ati“ (forscha, tojikcha birliklar va ular bilan hosilalar) kitobida ПРС (Миллер Б. В.нинг Песедский-русский словарь. Госиздат. Ин. И нац. словарей М.: 1953) kitobida „balesh“ shaklida keltirilib, „yostiqlik“ ma'nosini anglatishi berilgan(57-betida). Keyingi betida „balesh poshti“ misoli keltirilib, u ham „yostiqlik“ ma'nosini beradigan so'z deb ta'riflangan. Тж.РС(Таджиково-русский словарь. Госиздат и нац. Словарец. М.: 1954) da „bolisht“ shakli keltirilib, bolinga ishora qilingan.

Bolin esa „boshuvchi“, „yostiqlik“ ma'nolarini anglatgan. Kelib chiqadiki, boli asosiga -sh, -sht qo'shimchalari qo'shilib, hosil qilingan. TjRSning 543- betida -ish shakli fe'lining hozirgi zamon asosidan otdosh shaklini hosil qilishi ta'kidlandi. Boli esa tojikcha o's, ko'taril ma'nolarini beradi. Shundan kelib chiqib, u yostiqlik. Har qanday yostiqlik emas, go'laga o'xshash yumaloqlikni bildiradi.

Samolyot guvillar, yo'lovchilar to

Intiq manzillarga tezroq yetsin deb.

Sariosiyolik tabarruk momo

Kulcha jo'natadi menga, yesin deb. (42) [Sirojiddin Sayyid. Onamning kulchalari. She'rlar. „O'zbekiston“ NMIU, 2017 B 42]

f. – doirasimon yog'li non; kulcha. Tandirda yopilgan kichkina, dumaloqlik non.

Non hidli dalaning o'rtasidan kesib -

Boshda oq ro'moli, momo havoday--

Bir qiz kelyapti, uning yo'lin to'sib,



Uvatda belbog'lik yigit chalar nay. (39)

Ushbu she'rga e'tibor bersak, non, kulcha, patir, shirmoy - bular nonning turli shakllari.

Shirmon kulcha yuzlari

Rayhon isdir bu elning.

Uzun sochli qizlari

To'maridir bu elning.[45. Muhammad Yusuf. Xalq bo'l, elim. O'zbekiston, 2017. B 45]

Leksik birliklar o'zaro sinonim bo'lishi uchun umumlashtiruvchi belgi ham, farqlovchi belgi ham bo'lishi mumkin,- deydi Shavkat Rahmatullayev „Hozirgi adabiy o'zbek tili“ sida. [Sh. Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Sintaksis. Toshkent, 2018. B 73] Leksik ma'no tarkibidagi ideografik ma'nolarga teng bo'ladi. Farqlanish odatda biror ideografik semaning ma'no qirrasida, baho semasida, nutq ko'rinishida biriktirish belgisida voqe bo'ladi. Sinonimlar ushbu uch jihati, hatto bir jihati bilan ham farqlanishini mumkin. Ma'nodosh so'zlarning ushbu uch tavsifi ularni tasnifga bo'lish emas, balki sinonimlarni har xil nuqtayi nazardan qarash hisoblanadi. Shu o'rinda bu tasniflar ham bir-birini inkor qilmaydi. 'shimcha guruh -- uy-ro'zg'or buyumlariga yaqin leksemalar. Aytiladimoqchiki, agar sinonimlarda bir tekisda, yuz foizicha sinonimlik no'lmasdan, ular orasida ozroq farqli belgilar bo'lsa ham, bu tabiiy, bu ularning sinonimlik qatoriga putur yetkazmaydi.

Ko'z yoshimdan suv sepib, supurgi qilib sochim,

Yo'llaring supurganim esimdan chiqayozgan. (640)

Supurgi -- supurish uchun mo'ljallangan ro'zg'or buyumi. Qadimgi turkiy tilda ham ushbu ma'noni anglatgan. Subur fe'lga -gù qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan. Keyinchalik b undoshi p undoshiga almashib, so'z oxiridagi ochiq bo'lginning -u unlisi -i ga aylangan. -u ning yumshoqlik belgisi yo'qolganligini kuzatish mumkin. Suburgù-supurgi.



Yoqquvchi qo‘l bitta, gugurt bittadir,

O‘tni o‘chirmoqqa kul topilarmi? [368]

Maishiy hayotda qo‘llaniladigan narsa-buyumlardan biri – sham.

Qachondir o‘charku yongan har bir sham,

Quyosh ham botar-ku biz botsak, ne g‘am?! (570)

Sham. arabcha bu so‘z şam(un) shakliga ega. o‘zbek tiliga so‘z oxiridagi aynni tashlab qabul qilingan: sash sham (Tojik tilida bu so‘z oxiridagi ayn ’ (ayirish) belgisiga almashtirilgan: sham’ — şama’a fe’lining qotadigan yog‘dan tayyorlangan mum bilan qopladi’ ma’nosi asosida hosil qilingan, qotadigan yog‘dan maxsus tayyorlangan mum bilan qoplangan pilikli cho‘zinchoq chiroq ma’nosini anglatadi.

Maishiy leksika muammolariga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlarda ushbu tushunchaning mazmuni insonning kundalik turmushi va uning xo‘jalik yuritishidagi narsa-buyum, uy-ro‘zg‘or ishlarining ob‘yektlari, hodisalari va xarakterlarini belgilashga xizmat qiladigan barcha so‘zlarni o‘z ichiga oladi. Dunyo qashqirlari taomil buzib

O‘ltirsa biz bilan mashvarat tuzib.

O‘zbek terminologiyasi sistemasida paradigmatic munosabatlar ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Har xil soha terminologiyasi tilning leksik qatlamlari singari ochiq tizim hisoblanib, unda giper-giponimik, partonimik, graduonimik munosabatlar ham aks etganini ko‘rish mumkin.

Giper-giponimik hodisa, sodda tushuntirilganda, so‘zlarning uyadoshligiga asoslanadi. Bir turkum va uning turlari sanalsa, giper-giponimiya hosil bo‘ladi.

Sershox, serbarg novdalari chaq-chaqlatib qushlarni,

Umri bo‘yi o‘zi bir bor kulmagan daraxtman men. (594)

Bargim pilla qurti yedi, birov kiydi zarimni,



Birovlardan bir barg yulmagan daraxtman men.(594) „Bilmagan daraxt“ she'rida nihol, barg, shox, daraxt leksemalaridan foydalanilgan.

Daraxt, nihol leksemalarni ham bu turga kirgizish mumkin:

Ko'klayotgan yangi nihol – diydamga chirog',

Yomg'ir bo'lib dardlaringni o'zim yuvayin.

„Keksa daraxtning deganlari“ she'rida daraxt, nihol, tog' leksemalari tilga olinadi.

Choponliging bormi, tog'u toshga g'am yema,

Cho'l- u qirni aytavergin, oshga, g'am yema.

Bundan olib ketarimiz ikki metr surp,

Kafanliging bormi, bo'ldi, boshqa g'am yema.

Surp. Bu ot suf tovush tarkibiga ega deyilib so'zlashuv tilida surf shaklida aytilishi ta'kidlangan (tojik-rus lug'ati 369) Asli birinchi deb surf tovush tarkibini tanlash to'g'ri edi. O'zbek lug'atida bu ot suri tovush tarkibi bilan keltirilib, ma'nosi sidirg'a ip gazlama deb ta'riflangan (O'TIL, II, 87): sur qismi sidirg'a ma'nosini anglatadi desak, unga ip oti qo'shilgan deb tahlil qilish mumkin.

Kafan arabcha so'z kafan(un) shakliga ega 'oq mato bilan o'radi' ma'nosini anglatuvchi kafana 'murdani qabrga qo'yish oldidan o'raladigan oq mato' ma'nosini anglatadi (O'TIL, I 373). Bu so'zdan o'zbek tilida kafanlik mavhum oti, kafanla fe'li yasalgan.

Aytdim endi dunyo dardin aysh isi aytsin,

Bobolarning o'ngib ketgan do'ppisi aytsin.(696)

Turkiy tillarda “quloqchinli bosh kiyim” ma'nosi tum “tumshuq”, “burun” o'zagidan urchigan tumaq so'zi orqali anglashiladi. Uni tom “qalpoq”, “birinchi, asosiy”, “boshning tepa qismi”, yap. tum “tepa”, “bosh” bilan qiyoslash mumkin.



Maishiy leksika g'oyat keng va til lug'atining muhim tarkibiy qismidir. Bu eng zarur hayotiy tushunchalarni ifodalash bilan izohlanadi. Maishiy leksika semantik qatlamlari kundalik hayotda inson turmushining ko'pdan ko'p qirralarini qamrab oladi. Kundalik turmush va kishilik muloqot nutqi chambarchas bog'liq bo'lgani uchun bu qirralar tilda, tilshunoslik sohasida o'z aksini topadi.

Halima Xudoyberdiyeva leksikasi o'z ichiga ijtimoiy-maishiy, xususan, uy-ro'zg'or va oshxona buyum hamda jihozlari, mehnat qurollari bilan bog'liq leksemalar, oziq-ovqat mahsulotlarini ataydigan istilohlarni oladi.

Maishiy leksika haqida ma'lumotlar, leksikaning o'rganilishi, tanlab olingan so'zlar strukturasi berib o'tildi. Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida unumli hisoblangan maishiy leksikaning etimologiyasi haqida to'xtalindi.

Bunday leksemalar kishilik jamiyatida, qadimdan davom etib kelayotgan va ayrimlarining bugungi kundagi o'zgargan ifodalari mavjudki, ular haqida ma'lumotga ega bo'lish, ular ustida izlanishlar olib borish bugungi kun filologi, izlanuvchisi uchun muhim faoliyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azim Hojiyev. O'ZBEK TILI sinonimlarining izohli lug'ati. O'qituvchi. T.:1974. B 3.
2. Halima Xudoyberdiyeva. „Buyuk qushlar “ . O'zbekiston 2012. – 726 b.
3. Sirojiddin Sayyid. Onamning kulchalari. She'rlar. „O'zbekiston“ NMIU, 2017 -224 b.
4. Muhammad Yusuf. Xalq bo'l, elim. O'zbekiston, 2017. B 45
5. Nizomiddin Mahmudov. O'zbek sinonimlarning katta izohli lug'ati. 1-jild. G'. G'ulom nomidagi NMIU. 2022. - 504 b
6. X. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А.Словарь-справочник лингвистических терминов. – М: Просвещение, 1985. –С.30.
7. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. II jild. (arabcha so'zlar bilan hosilalar) Toshkent 2003. - 599 b.